

MADANIY TURIZM VA TURIZMNING O'ZBEKİSTON İQTİSODİYOTIGA QO'SHAYOTGAN HİSSASI

**Iqbolxo'jaev Amirxon
Qo'qon universiteti talabasi,
Umarov Omonjon
Qo'qon Universiteti o'qituvchisi**

Anotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda jadal rivojlanayotgan turizm turlaridan biri bo'lmish madaniy turizm va uning mamlakatimiz iqtisodiyotiga qo'shayotgan hissasi haqida so'z boradi hamda u mualliflar xulosasi bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: Madaniy turizm, Covid-19, madaniy meros, iqtisodiyot

Madaniy turizm – bu sayyohlik faoliyatining bir turi bo'lib, unda sayyohning asosiy motivatsiyasi sayyohlik joyidagi moddiy va nomoddiy madaniy diqqatga sazovor joylarni, mahsulotlarni o'rganish, kashf etish, tajriba va iste'mol qilishdir. Ushbu attraksionlar, mahsulotlar jamiyatning o'ziga xos moddiy, intellektual, ma'naviy va hissiy xususiyatlari to'plamiga tegishli bo'lib, ular san'at va arxitektura, tarixiy va madaniy meros, milliy taomlar merosi, adabiyot, musiqa, ijodiy sohalar va tirik madaniyatlarni o'z turmush tarzi, qiymati bilan qamrab oladi. Tizimlar, e'tiqodlar va an'analar shular jumlasidan.

Madaniyat va turizm doimo uzviy bog'liq bo'lib kelgan. Madaniy diqqatga sazovor joylar va tadbirlar sayohat uchun muhim turtki bo'lib xizmat qiladi va sayohatning o'zi madaniyatni rivojlantiradi. Ammo so'nggi o'n yilliklardagi madaniyat va turizm o'rtaqidagi bog'liqlik iste'molning o'ziga xos shakli – madaniy turizm sifatida yanada aniqroq belgilandi.

| Yillar | Tashriflar soni | Daromad | Qarindoshchilik aloqalari | Madaniy turizm |
|--------|-----------------|-----------------|---------------------------|----------------|
| 2016 | 1.320.000 | 430 mln dollar | 75% | 5,4% |
| 2018 | 2.700.154 | 1. mlrd dollar | 73,2% | 7,1 |
| 2020 | 1.504.952 | 261 mln dollar | 81,8% | 11% |
| 2022 | 5.200.542 | 1.6 mlrd dollar | 80,7% | 14,2% |
| 2025 | 8.000.000 | 2 mlrd dollar | 79,1% | 17,8% |

Jadvaldan ko'rishimiz mumkinki turistlar soni yildan yilga barqaror o'sib borgan. Ammo 2019-2020 yillar davridagi turistlar soni kamaygan. Bunga sabab Covid-19 virusi sabab bo'lgan. Lekin shunda ham turistlar tashrif buyurgan. 2018 yildan buyog'iga turistlar keltirgan foyda va turistlar soni o'sgan. Bunga sabab O'zbekiston viza tizimidagi katta o'zgarishlar va qushni davlatlar bilan o'rnatilgan do'stona aloqalarni ko'rsatishimiz mumkin. Turistlar soni o'shishi bilan birga avtamatik tarzda ular keltiradigan iqtisodiyotimizga foydasi ham o'sib boradi. Jadvaldan shuni ko'rishimiz mumkinki iqtisodiyotimizga keltirayotgan foyda uildan yilga o'sib bormoqda. O'zbekiston iqtisodiga keltirgan foydasi 2022 yilda o'zining cho'qqisiga chiqdi. Kun.uz sayti prognoziga ko'ra 2025 yilda turistlar soni 8 mlnga chiqishi kutilmoqda.

Hozirgi kunda turizm davlatimiz iqtisodiyotiga katta foyda keltirmoqda, ayniqsa madaniy turizm shular jumlasida. Chunki yurtimizda ko'plab madaniy tarixiy obyektlar

mavjudligi ko'plab turistlarni etiborini jalb etmoqda. Uzbektourism.com so'rovnomasiga ko'ra ko'plab turistlar qarindoshlarini ko'rishga kelishgan, undan keying o'rinda madaniy turizmni ko'rish ko'rish uchun tashrif buyurishgan Turizm har bir davlat iqtisodiyoti uchun foyda keltirishi barchaga ravshan, ammo bu insonlar uchun ham katta foyda keltiradi. Bunga misol qilib yangi ish o'rinlarini keltirish mumkin va o'zimizning madaniyatimizni targib qilish uchun ham yaxshi imkoniyat.

Xulosa qilib aytganda madaniyat va turizm doimo uzviy bog'liqligini tushunishimiz mumkin. Aynan turizmni iqtisodiyotimizga keltirayotgan foydasini ko'rib bu soxani rivojlantirishga katta mablag va katta ishlar olib borishimiz zarur. Bizga katta imkoniyatlar eshiklari ochiq. Butun yer yuzasida jadal rivojlnayotgan turizm turlaridan biri bu madaniy turizm. Bizning madaniy turizm turini rivojlantirish va millionlab sayyoohlar tashrifini amalga oshirish uchun imkoniytlarimiz katta. Boy tarix va madaniyatimiz butun jahon insoniyatini lol qoldira oladi.

Foydalanimgan adabiyotlar va saytlar:

1. Greg Richards – "The impact of culture on tourism" 2009.
2. Uzbektourism.com
3. Kun.uz
4. Lex.uz
5. Stat.uz